

JOME MASJIDLARDA HAYIT NAMOZI ADO ETILDI



JOME MASJIDLARDA HAYIT NAMOZI ADO ETILDI

Bugun butun Respublikamiz bo'ylab Ramazon Hayiti keng nishonlandi. "Yaxshi niyat va ezgulikka limmo-lim bo'lgan insoniylik orzu-niyatlar bilan tutgan ro'zamizni Olloh-ta'olo o'z dargohiga qabul aylagan bo'lsin", - deya har bir musulmon inson borki, jome masjidlar tomon yo'l olishdi. Erta tongdan barcha jome masjidlarla Hayit namozi o'qildi. Jumladan, So'x tumanidagi jome masjidlarda ham Hayit namozi ado etildi.

Hayit namozini to'la to'kis ado etish maqsadida tuman hokimligida shtab tuzilib, barcha masjidlarda qulay shart-sharoitlar yaratib berildi. Hamkor tashkilotlar va mutasaddi idoralar vakillari tomonidan navbatchilik tashkil etildi.

Ramazon Hayiti arafasida Respublikamizda umumxalq hayriya hashari tashkil etilgani ham xalqimiz Ramazon Hayitini obodlik va poklikda kutib olishlari uchun qilingan ezgu amallardan bo'ldi.

Hayit namozi jarayonida qilingan mav'iza va duolarda tinchlik va osoyishtalikning barqarorligi, osmonimiz musaffoligi va porloq kelajagimizning mustahkamligi niyatida samimiy tilaklar bildirildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-05-02 09:25:58